

Ulug'bek Muhammad Tarag'ay



Ulug'bek Muhammad Tarag'ay

(1394 yil 22 mart, Sultoniya shahri, Eron Ozarbayjoni – 1449 yil 27 oktyabr, Samarqand)

(1409-1449)

Ulug'bek o'zbek xalqi tarixida buyuk astronom va matematik, davlat arbobi sifatida iz qoldirgan. **Shohrux**ning o'g'li, **Amir Temur**ning nabirasidir Sohibqironning “*besh yillik yurish*”ida (1392-96) Iroqdagi Mordin qal'asini qamal qilish chog'ida tug'ilgan. **Sharafuddin Ali Yazdiy** “*Zafarnoma*” asarida yozishicha, **Amir Temur** huzuriga chopar kelib Ulug'bekning tug'ilgani va munajjmlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo'lishini bashorat qilganlari xushxabarini yetkazadi. Sohibqiron xursandligidan Mordin qal'asi qamalini to'xtatib, uning xalqiga yuklangan to'lovni bekor qiladi. Uning o'z nabirasiga **Muhammad Tarag'ay** va **Ulug'bek** deb ism qo'yganini ham munajjmlarning yuqoridagi bashorati bilan bog'lash mumkin. **Amir Temur** Ulug'bek tarbiyasiga alohida e'tibor bergan va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda qatnashtirgan. **Klavixon**ning qayd etishicha, Ulug'bek bobosining xorijiy elchilarni qabul qilish marosimlarida ishtirok etgan. 1404 yil Konigilda o'tkazilgan tantanalarda **Amir Temur** oltita nabirasining (jumladan, Ulug'bekning) nikoh to'ylarini o'tkazgan. To'yda Sohibqiron Ulug'bekka Toshkent, Sayram, Yangi (hoz. Tarozi), Ashpara va Mo'g'ulistonni to'xtoy hududigacha suyurg'ol qilib bergan. Amir Temur O'trorda vafot etgan chog'da Ulug'bek ham o'sha yerda bo'lgan.

Temuriylar o'rtasida toju taxt uchun kurash boshlangan. O'trordan qaytgan Shohrux farzandlari – Ulug'bek va **Ibrohim Sulton**ni amirlar poytaxt Samarqandga kiritmaydilar, ular Buxorodan panohtopishgan. Samarqand taxtini **Xalil Sulton** egallagan. Xurosonni boshqarib turgan Shohrux Ulug'bekka dastlab Andxo'y bilan Shibirg'onni, keyinchalik Xurosonning Tus, Xabushon, Kalot, Bovard, Naso, Yozir, Sabzavor va Nishopurdan iborat qismini boshqarishni

topshirgan. 1410 yil Shohrux Movarounnahrni o'z tasarrufiga kiritgach, uni idora etishni Turkiston viloyati bilan birga Ulug'bekka topshirib, Sohibqiron vasiyatini qayta tiklagan. Ulug'bek yosh (15 yosh) bo'lgani sababli amir **Shohmalik** unga homiy etib belgilangan. Lekin Shohmalikning raqibi – O'trordagi **Shayx Nuriddin** va **Muhammad Jahongir**ning Hisordagi voliylari 1410- yil bahorida Ulug'bek va Shohmalikka qarshi chiqqanlar. Shu yilning yozida Shohrux ishtirokida bo'lgan jangda Shohmalik va Ulug'bek g'alaba qilganlar. 1411 yil sentabrda Shohrux Samarqandga kelib, Shohmalikni o'zi bilan Hirotga olib ketgan va keyinchalik Xorazmga hokim qilib yuborgan (1413).

Shu vaqtdan boshlab Ulug'bek Movarounnahrni mustaqil idora etishga kirishgan. Shohrux Movarounnahrda boshqa temuriy shahzodalarga ham mulk ajratgan edi. Chunonchi, Hisori Shodmonni **Muhammad Sulton**ning o'g'li **Muhammad Jahongir mirzoga**, O'zgand viloyatini **Umarshayx**ning o'g'li **Amirak Ahmad**ga suyurg'ol qilgan edi. Biroq ular Ulug'bekka tobe edilar. 1414-15 yil ular o'rtasida ixtilof chiqib, Ulug'bek Amirak Ahmad ustiga qo'shin tortgan va uni yenggan. Shohrux Amirak Ahmadni Xurosonga chaqirtirib olgan; Qashg'ar ham to 1428 yilgacha Ulug'bekka tegishli bo'lgan. Ulug'bek o'z hukmronligi davomida 2 marta yirik harbiy yurish qilgan. Birinchisida 1425 yil Mo'g'uliston xoni **Shermuhammad o'g'lon** (1421-1425) o'zini mustaqil xon deb e'lon qilganda, Ulug'bek unga qarshi yurish qilib zafar qozongan. Ulug'bekning 2-yurishi Sig'noq shahri tomon bo'lgan. Sirdaryoning quyi havzasi Ulug'bek tasarrufida edi. Ulug'bek 1427 yil Sig'noq yaqinida uning mulkiga tahdid qilgan **Baroq o'g'lon** bilan to'qnashgan va mag'lubiyatga uchragan. Dushman Ulug'bekni ta'qib qilib, Samarqand ostonalarigacha kelgan. Movarounnahr xavf ostida qolganligi tufayli Shohrux Xurosondan katta lashkar tortib kelib xavfni bartaraf etadi.

Shohrux vafoti (1447, 12 mart)dan keyin Ulug'bekning katta o'g'li **Abdullatif** voris sifatida Temuriylar hukmdori bo'lib qoladi. Lekin Shohruxning qattiqqo'l xotini **Gavharshod begim** bu haqda o'z fikriga ega edi. U Shohrux davrida Temuriylarning poytaxti bo'lib qolgan Hirot taxtiga marhumning 3-o'g'li bo'lmish **Boysung'ur** mirzoning o'g'li va suyukli nabirasi **Alouddavla** mirzoni o'tqazish tarafdori edi. **Gavharshod begim** Hirot taxtiga Alouddavlani o'tqazganini Ulug'bekka nisbatan isyon deb qaralmog'i kerak edi. Shuning uchun Ulug'bek 1448 yil bahorida Abdullatif bilan birgalikda 90 ming askar bilan Xurosonga kelib, Hirot yaqinida bo'lgan jangda Alouddavlani tor-mor qiladi. G'alaba Abdullatifning shaxsiy shijoati va lashkarboshilik iste'dodi tufayli erishilgan bo'lsa ham, Ulug'bek fathnomani kichik o'g'li Abdulaziz nomidan e'lon qiladi. Undan tashqari, bobosi Shohrux tomonidan Abdullatifga vasiyat qilingan Hirotidagi Ixtiyoriddin qal'asi va uning ichidagi boyliklarini ham Ulug'bek Abdulazizga beradi. Shundan so'ng Ulug'bek bilan Abdullatif o'rtasidagi munosabat ochiq dushmanlik tusini oladi. Ulug'bek Samarqandda Abdulazizni qoldirib, lashkar bilan katta o'g'liga qarshi jangga yuradi. Abdullatif ham o'z lashkari bilan Amudaryo yoqasiga kelib turadi. Ikkala lashkar ham daryoning 2 sohilida uzoq muddat turib, suvni kechib o'tishga botinmaydi. Bu orada Ulug'bek, Abdulaziz lashkardagi amirlarning oilalarini ta'qib etayotir, – degan xabarni eshitib, Samarqandga qaytib kelishga majbur bo'ladi va shahar aholisining Abdulazizga qarshi isyon ko'targanining guvohi bo'ladi. Tezda shaharni tartibga keltirib, yana Abdullatifga qarshi jangga yo'llanadi, lekin Samarqand yaqinida undan mag'lubiyatga uchraydi. Oradan ko'p o'tmay, Ulug'bek Abdullatif buyrug'i bilan qatl etiladi. Uning jasadi Go'ri Amir maqbarasiga dafn etilgan.

Ulug'bek otasi Shohrux davrida siyosiy hukmdor sifatida ichki va tashqi siyosat bobida birmuncha mustaqil bo'lgan. Boshqa davlatlar bilan bevosita savdo va elchilik munosabatlari olib borgan. Ulug'bek davrida Samarqand shahri yanada ravnaq topgan. Shaharda hunarmandchilik, me'morlik, adabiyot, umuman ilm-fan yuksaldi, savdo taraqqiy etdi. **Buxoroda** (1417), **Samarqandda** (1420), **G'ijduvonda** (1432-33) madrasalar va Marvda xayriya muassasalari qurildi. Madrasalarda diniy fanlar bilan birga dunyoviy fanlar ham o'qitildi, ko'proq aniq fanlarga ahamiyat berildi. Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohizinda va Registon majmualari qurilishlari poyoniga etkazildi. Bundan tashqari, mamlakatda ko'plab jamoat inshootlari (karvonsaroy), tim, chorsu, hammomlar va boshqa ham bunyod etilgan. Ulug'bek O'rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini o'rta asr sharoitida dunyo fanining eng yuqori pog'onasiga olib chiqdi. Uning qilgan eng buyuk ishi – Samarqand ilmiy maktabini o'sha davr akademiyasini barpo etganligi bo'ldi. Bu ilmiy maktabda 200 dan ortiq olimlar faoliyat olib borgan. Ular orasida eng yiriklari **Qozizoda Rumiy**, **G'iyosiddin Jamshid Koshiy** edi. Ulug'bekning ilmiy maktabi o'z faoliyatida o'rtaosiyolik mashhur olimlar **Muhammad Xorazmiy**, **Ahmad al-Farg'oniy**, **Abul Abbos al-Javhariy**, **Ibn Turk al-Xuttaliy**, **Xolid al-Marvarrudiy**, **Ahmad al-Marvaziy**, **Abu Nasr Forobiy**, **Abu Rayhon Beruniy**lar boshlab bergan ilmiy an'anaga asoslanar edi. Ulug'bek Samarqand yaqinida rasadxona barpo qildi. Ulug'bek akademiyasidagi yirik olim – **Ali Qushchini** Ulug'bek "Ziji"ning so'zboshisida "*farzandi arjumand*", ya'ni "*aziz farzandim*" deydi. Aslida u Ulug'bekning sadoqatli shogirdi bo'lib, "*Zij*" ustida ishlar poyoniga yetkazilguniga qadar ustoziga yordam bergan. Ulug'bek Samarqandda 2 ta madrasa: biri – Registon ansambli tarkibida va ikkinchisi Go'ri Amir ansambli tarkibida barpo qilgan. Boshqa yirik olimlar qatorida Ulug'bekning o'zi ham bu madrasalarning har birida haftada bir marotaba ma'ruza o'qigan.

Boshqa vaqtini ko'proq astronomik kuzatishlarga, "*Zij*" ustida ishlashga va davlat ishlariga bag'ishlagan. Ulug'bekning yana bir matematik asari "*Risolai Ulug'bek*" deb ataladi va uning 1-nusxasi Hindistonda Aligarx universiteti kutubxonasida saqlanadi, hali o'rganilmagan. Fan va madaniyat tarixida so'nmas iz qoldirgan Ulug'bekning ilmiy merosi uning "*Zij*"idir. Bu asar sayyoralar, Quyosh va Oy harakatini talqin qilish, yulduzlar katalogi va unda qo'llanilgan matematik usullari bo'yicha o'rta asrlardagi astronomik asarlarning eng mukammali bo'lganligi uchun avvalambor u musulmon mamlakatlaridagi olimlarning diqqatini jalb qilgan. "*Zij*"ga ilk sharhni Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchi "*Charhi Ziji Ulug'bek*" nomi bilan yozgan. O'sha XV asrning o'zida qohiralik munajjim **Shamsiddin Muhammad as-So'fiy al-Misriy** "*Tashil Ziji Ulug'bek*" ("Ulug'bek "Zij"ini osonlashtirish") nomli asar yozib, unda Ulug'bek jadvallarini Qohiraning geografik kengligiga moslashtirdi. Ulug'bek "*Zij*"iga yozilgan eng mukammal sharh Samarqand ilmiy maktabining eng so'nggi namoyandasi **Nizomiddin Abdul Ali ibn Muhammad ibn Husayn Birjandi**ning 1523 yil yozib tugatilgan "*Sharhi Ziji Ulug'bek*" asaridir. Ulug'bekning nomi Yevropada va umuman G'arb mamlakatlarida buyuk bobosi **Amir Temurning** shuhrati tufayli ancha ilgari ma'lum bo'lgan. Yevropa Amir Temur va uning oila a'zolari haqida 1-bo'lib Samarqandga 1403-1405 yillar sayohat qilgan Ispaniya elchisi **Rui Gonsales de Klavixodan** eshitgan. **Klavixoning** "Kundaliklar"i 1582 yil Sevilyada va 1607 yil Parijda nashr etilganidan so'ng yevropaliklar darhol **Amir Temur** va uning oila a'zolari bilan qiziqqanlar. Ulug'bek nomi XVII asr boshidanoq (1601 yildan) Amir Temurga bag'ishlangan dramatik asarlarda eslatiladi. Bevosita Ulug'bekka bag'ishlangan Yevropadagi 1-nashr ingliz

astronomi **Jon Grivs** (1602-52) qalamiga oid. Uning 1648 yil nashr etilgan asarida Ulug'bek yulduzlar jadvalining bir qismi (98 ta yulduz) ilova qilingan. 1665 yil yana bir ingliz olimi **Tomas Xayd** (1636-1703) Grivs bilan bog'lanmagan holda "Zij"dagi yulduzlar jadvalini forsiy va lotincha tarjimada nashr etgan. 1690 yil Gdanskda polyak astronomi **Yan Geveliy** chop ettirgan "Yulduzlar osmonining atlası"dagi ikkita gravyurada o'sha davrning mashhur astronomlari orasidan Ulug'bekka faxrli o'rin bergan, unda Ulug'bekning yulduzlar jadvalini **Ptolemey, Tixo Brage, Richchioli, Vilgelm IV** va o'zining jadvallari bilan solishtirgan.

1711 yil Oksfordda Ulug'bekning geografik jadvali 3-marta nashr etilgan. 1807 yil o'sha yerda bu jadval yangi grek tilida ham nashr etilgan. 1725 yil ingliz astronomi **D. Flemetid** (1646-1719) Ulug'bekning yulduzlar jadvalini **Ptolemey, Tixo Brage, Vilgelm IV, Yan Geveliy** va o'zining jadvallari bilan birga nashr etgan. 1908-09 yillar **V.L. Vyatkin** Ulug'bek rasadxonasining xarobalarini va uning asosiy asbobi – kvadrantini kavlab topgandan so'ng, Samarqand olimlarining faoliyatiga yangidan qiziqish boshlanadi. Natijada 1918 yil **V. V. Bartoldning** "*Ulug'bek va uning davri*" asari nashr etilgan. Sovet davrida Ulug'bekning hayoti va ijodi bilan mamlakat jamoatchiligini tanishtirish bo'yicha **T.N. Qori-Niyoziy** ko'p sa'y-harakat qilgan. Ulug'bek ijodini targ'ib qilishda **G'. Jalolov** va **V. P. Shcheglovlarning** nashrlari ham diqqatga sazovordir. XX asrning 80 yillari boshiga kelib Ulug'bek "Zij"ining to'liq va mukammal holda, ilmiy izohlar bilan ta'minlangan tarjimasini **A. Ahmedov** 1994 yil amalga oshirib, nashr ettirdi. Yaqin yillargacha Ulug'bek faqat astronom va matematik deb hisoblanardi. Lekin XX asr oxirida uning ijodi serqirra bo'lib, u tarix, she'riyat va musiqa bobida ham qalam tebratgani aniqlandi. Tarixchi **Mirzo Muhammad Haydar** "*Tarixi Rashidiy*" asarida "*Mirzo Ulug'bek tarixnavis donishmand (va) "To'rt ulus" (tarixi)ni (ham) yozib qoldirgan edi*", deb yozgan. Ulug'bekning turkiyda yozgan "*Tarixi arba' ulus*" ("*To'rt ulus tarixi*") asari *Chingizxon* bosib olgan mamlakatlarning XIII-XIV asrlar 1-yarmidagi siyosiy hayotini o'rganishda muhim manbadir. **Navoiyning** "*Majolis un-nafois*" va **Abu Tohirxojaning** "*Samariya*" asarlarida ham uning she'rlaridan namunalar keltirilgan. Uning davrida ko'pgina asarlar arab va fors tilidan eski o'zbek tiliga tarjima qilingan. Ulug'bek tashkil etgan boy kutubxonada turli fanlarga oid 15 mingdan ortiq jildli kitob bo'lgan. Ulug'bek yoshligidan o'zga fanlar qatori musiqa ilmidan saboq olib, bir qator kuy va usullar yaratgan, bu sohaga oid 5 ta risola ham yozgan. "*Risola dar ilmi musiqa*" nomli asari musiqa tarixiga bag'ishlanib, unda "12 maqom bayoni"ga doir maxsus bobi ham bo'lgan. Ulug'bek "*bulujiy*", "*shodiyona*", "*axloqiy*", "*tabriziy*", "*usuli ravon*" va "*usuli otlig*" kuylarini ijod qiladi.

Ulug'bek tavalludining 600 yilligi 1994 yil aprelda Parijda, oktabrda Toshkent va Samarqandda tantanali ravishda nishonlandi va xalqaro konferensiyalar o'tkazildi. Shu yili Toshkentda Ulug'bekka haykal o'rnatildi. Ulug'bek siymosi Pulkovo rasadxonasi, Moskva universiteti konferens-zallarida dunyodagi mashhur olimlarning portretlari qatoridan joy olgan. Samarqandda Ulug'bekning memorial muzeyi tashkil etilgan. Toshkentda O'zbekiston milliy universiteti, tuman, ko'cha, mahalla, metro stansiyasi, istirohat bog'i, shaharcha Ulug'bek nomi bilan ataladi. Farg'ona pedagogika universitetiga, Samarqand arxitektura-qurilish institutiga, Kitob xalqaro kenglik stansiyasiga, qishloq, maktab va boshqaga Ulug'bek nomi berilgan. Ulug'bekning hayoti va faoliyati haqida pesa (**M. Shayxzoda**, "*Mirzo Ulug'bek*" tragediyasi), roman (**O. Yoqubov**, "*Ulug'bek xazinası*"; **S. Borodin**, "*Samarqand osmonida yulduzlar*"), opera

(**A. Kozlovskiy**, “Ulug‘bek”), poyema (**M. Boboyev**, “Ulug‘bek”), balet (**M. Bafoyev**, “Ulug‘bek burji”), film (Rej. **Latif Fayziyev**, “Ulug‘bek yulduzi”, 1965) va boshqa yaratilgan.

2023-10-30 00:07:21